



MA'NAVIY YETUK SHAXSNI TARBIYALASHDA YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING AHAMIYATI

N.I.Zaynobidinova

NamDPI Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi

katta o'qituvchisi, f.f.n., Email: nzaynobidinova2406@gmail.com

Tel: +998 97 231 28 82, OrcID: <https://orcid.org/0009-0000-6976-199X>

Zokirjonov Nematjon NamDPI

Ijtimoiy gumanitar fanlarni

o'qitish metodikasi (ma`naviyat asoslari) yonalishi magistri

Email: nematjonzokirjanov1995@gmail.com

Tel: +998 93 938 79 09, OrcID: <https://orcid.org/0009-0009-9183-6420>

Annotatsiya: Maqolada Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, strategiyaning beshinchisi yo'nalishi – ma'naviy taraqqiyot va ma'rifiy islohotlar asosida yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, mustaqil fikrlash, mas'uliyat, innovatsion tafakkur kabi fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ma'naviy tarbiya tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy tarbiya, Yangi O'zbekiston, taraqqiyot strategiyasi, ma'naviyat axloqiy fazilatlar, yoshlar tarbiyasi, innovatsion tafakkur, milliy qadriyatlar.

ЗНАЧЕНИЕ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА В ВОСПИТАНИИ ДУХОВНО-РАЗВИТОЙ ЛИЧНОСТИ

Аннотация: В статье проанализирована роль Стратегии развития Нового Узбекистана в воспитании духовно зрелой личности. Особое внимание уделено пятому направлению стратегии — духовному развитию и просветительским реформам, направленным на формирование у молодежи таких качеств, как национальные и общечеловеческие ценности, независимое мышление, ответственность и инновационное мышление. Показано, что данные меры играют важную роль в развитии системы духовного воспитания.

Ключевые слова: духовное воспитание, Новый Узбекистан, стратегия развития, духовно-нравственные качества, воспитание молодежи, инновационное мышление, национальные ценности.

THE IMPORTANCE OF THE NEW UZBEKISTAN DEVELOPMENT STRATEGY IN EDUCATING SPIRITUALLY MATURE INDIVIDUALS

Abstract: This article analyzes the role of the New Uzbekistan Development Strategy in fostering spiritually mature individuals. It focuses on the fifth strategic direction — spiritual development and educational reforms — aimed at cultivating qualities in youth such

as national and universal values, independent thinking, responsibility, and innovative mindset. The paper highlights the significance of these measures in the development of the spiritual education system.

Keywords: spiritual education, New Uzbekistan, development strategy, moral and ethical values, youth upbringing, innovative thinking, national values.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining 2022–2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi, avvalo, xalqimizning orzu-umidlarini, farzandlarimizning baxtli kelajagini ta'minlashga qaratilgan." [1] bo'lib, mamlakatni ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy rivojlantirishning yangi bosqichini belgilaydi. Strategiyaning beshinchi yo'nalishi – ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va ma'rifiy sohani isloh qilishga alohida e'tibor qaratadi. Bu yo'nalish yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda mustaqil fikrlash, mas'uliyat, vatanparvarlik, innovatsion tafakkur kabi fazilatlarni shakllantirishni maqsad qiladi. Ma'naviy yetuk shaxs jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi, chunki u nafaqat o'z hayotida muvaffaqiyatga erishadi, balki jamiyatga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqola strategiyaning ma'naviy tarbiyadagi ahamiyatini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda muammoning dolzarblii, tadqiqot maqsadlari va metodologiyasi yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'tmishda yashab ijod etgan allomalarimiz Farg'oniy, Xorazmiy, Farobi, Ibn Sino, Ulug'bek, Buxoriy, Termizi, Marg'iloni, Motrudiy, Zamashshariy va boshqa allomalar nafaqat ilm cho'qqilarini egallabgina qolmay, uni – ya'ni ma'rifatni keng targ'ib etganlar, o'rgatganlar, shogirdlarni tarbiyalaganlar. Turkiston ma'rifatchilik maktabi boy o'tmish va ulkan merosga ega. Mahmudxoja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'li, Ashurali Zohiriy, Saidrasul Saidaziziy, Ishoqxon Ibrat, Ahmad Donish va boshqalar mamlakatni, xalqni milliy zulm va ma'rifiy qoloqlikdan xalos etishning yagona yo'li ma'rifatda deb bildilar. Ma'rifatparvarlik harakatining yorqin siymolaridan biri Abdulla Avloniyning «Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidir», [1] - degan g'oyasi ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashdagi ma'rifatparvarlik harakatining dasturini tashkil etgan.

Mamlakatimizda yoshlarni yuksak ma'naviyatli, yetuk inson qilib tarbiyalashga oid ko'plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, Musurmonova O. "Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi", Saidov, S. "Tarixiy manbalarda keltirilgan Ibn Al Muqaffa borasidagi ma'lumotlar tahlili", "Tadbir ul-manzil" risolasi–oilaviy munosabatlar uchun dasturulamal", Umarov E. "Ma'naviyat asoslari", Erkayev A. "Ma'naviyat — millat nishoni" kabi ilmiy nashrlar fikrimizning yaqqol dalilidir.

Analiz va sintez, hujjatli tahlil (strategik hujjatlar), amaliy dasturlar (forumlar, tadbirlar, ta'lim loyihalari) hamda ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilish kabi usullar tadqiqotning metodologiyasi sifatida qo'llanildi. Tahlil obyekti sifatida "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi", "Yoshlar siyosati to'g'risida"gi qonun, OAV materiallari va xalqaro tajriba o'rganildi.

Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasining ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashdagi rolini tahlil qilish va uni amalga oshirishda mavjud muammolarni aniqlab, takliflar ishlab chiqish tadqiqotning maqsadlaridandir.

NATIJALAR

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi (2022–2026) O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishi uchun muhim yo'l xaritasi sifatida ishlab chiqilgan bo'lib, uning markazida inson qadriyatlarini ulug'lash va ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalash g'oyasi turadi. Strategiyaning beshinchi yo'nalishi – "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" – ma'naviy-axloqiy tarbiyani davlat siyosatining asosiy ustuni sifatida belgilaydi. Quyida ushbu strategiyaning ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashdagi ahamiyatini batafsil yoritib, uning asosiy yo'nalishlari, maqsadlari va amaliy jihatlarini ko'rib chiqamiz.

"Har bir soha va tarmoqda ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash, yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi." [4]

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi "inson – jamiyat – davlat" tamoyiliga asoslanadi. Bu tamoyil har bir shaxsning ma'naviy, axloqiy va intellektual rivojlanishini davlat siyosatining markaziga qo'yadi. Ma'naviy yetuk shaxsni



tarbiyalashda insonning shaxs sifatidagi qadr-qimmati, uning erkin fikrashi, vatanparvarligi, adolatli va mas'uliyatli bo'lishi kabi fazilatlarga alohida e'tibor qaratiladi. Chunki "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir, – dedi Shavkat Mirziyoyev yig'ilishda. – Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat." [11]

Strategiyada "Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan 'Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari' g'oyasini keng targ'ib etish" (71-maqсад) kabi vazifalar qo'yilgan. Bu maqсад yoshlarda vatanparvarlik, halollik, mehr-oqibat va ijtimoiy mas'uliyat kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Davlat tomonidan yoshlarni ma'naviy tarbiyalash uchun turli tadbirlar, forumlar va ijtimoiy loyiҳalar tashkil etilmoqda. Masalan, "Yoshlar kuni", "Vatanparvarlik oyligi" kabi tadbirlar orqali yoshlarda milliy g'urur va mas'uliyat hissi kuchaytirilmoqda.

MUHOKAMA

Ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda ta'lismiz tizimi strategiyaning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Strategiya ta'lismiz sohasida keng ko'lamli islohotlarni, ayniqsa, maktabgacha, umumiy o'rta va oliy ta'limda ma'naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirishni nazarda tutadi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni milliy qadriyatlар, adab-axloq qoidalari va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan maxsus dasturlar joriy etilmoqda. Masalan, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk shaxslarning hayoti va ijodi, shuningdek, xalq ertaklari va dostonlari orqali bolalarda ma'naviy asoslar shakllantirilmoqda.

Strategiyada "Uzluksiz ma'naviy tarbiya" konsepsiysi ham ilgari surilgan. Bu dastur doirasida maktablarda "Vatanparvarlik tarbiyasi", "Axloq va odob" kabi maxsus darslar joriy etilmoqda. Shu bilan birga, o'quvchilarda mustaqil fikrash, innovatsion yondashuv, vijdonli mehnat va oilaviy qadriyatlар kabi ko'nikmalar rivojlantirilmoqda.

Oliy ta'lif muassasalarida yoshlarni nafaqat kasbiy jihatdan, balki ma'naviy-axloqiy jihatdan ham tayyorlashga e'tibor qaratilmoqda. Talabalarni vatanparvarlik, ijtimoiy mas'uliyat va global dunyoqarashga ega bo'lishga undaydigan maxsus kurslar va tadbirlar tashkil etilmoqda. Natijada, "Yoshlar akademiyasi" va "Yoshlar yetakchilari" kabi loyihalar orqali yoshlar o'zlarining ma'naviy va intellektual salohiyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Shuningdek, maktablarda "Ma'naviyat soatlari" tashkil etilib, ularda o'quvchilar bilan axloqiy va ma'naviy mavzularda suhbatlar o'tkazilmoqda.

Madaniy merosni asrash, milliy san'atni rivojlantirish va zamonaviy ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali yoshlarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar shakllantiriladi. Strategiyada madaniyat va san'atni ma'naviy tarbiya vositasi sifatida rivojlantirishga katta e'tibor berilgan. Unda milliy kino va animatsiya sanoatini rivojlantirishni ma'naviy tarbiyaning muhim vositasi sifatida ko'radi. Masalan, Alisher Navoiy, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi tarixiy shaxslar hayotiga bag'ishlangan filmlar va seriallar ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, yoshlar uchun axloqiy mazmunli multiplikatsion filmlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Teatrlar va san'at galereyalari orqali yoshlarda estetik did va ma'naviy boylikni rivojlantirish maqsad qilinadi. Milliy teatrlarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash, yosh ijodkorlarni rag'batlantirish va san'at ko'rgazmalarini tashkil etish strategiyaning muhim yo'nalishlaridan biridir. Fikrimizning dalili sifatida "O'zbekfilm" studiyasi tomonidan ishlab chiqarilgan "Ilhak" va "Temur" kabi filmlar yoshlarda vatanparvarlik va ma'naviy qadriyatlarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, "Yosh ijodkorlar festivali" kabi tadbirlar yoshlarni madaniy faoliyatga jalb qilmoqda.

Kitobxonlik va ilmiy merosni targ'ib qilish borasida strategiya "Kitobsevar millat" g'oyasini ilgari surib, kitobxonlikni ommalashtirish va buyuk ajdodlarning ilmiy merosini o'rganish orqali yoshlarda ma'naviy barkamollik va intellektual salohiyatni oshirishni maqsad qiladi. Axborot-kutubxona xizmatlarini rivojlantirish, zamonaviy kutubxonalar tashkil etish va kitob nashrini ko'paytirish strategiyaning muhim vazifalaridan biridir (72-maqсад). Masalan, "Kitob olami" va "Kitob festivali" kabi loyihalar orqali yoshlar kitobxonlikka jalb qilinmoqda.

Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy kabi buyuk mutafakkirlarning ilmiy merosini o'rganish va targ'ib qilish yoshlarda milliy g'urur va ma'naviy boylikni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu maqsadda maxsus ilmiy markazlar va muzeylar faoliyat yuritmoqda. Qolaversa, "O'zbekiston Milliy kutubxonasi" va "Alisher Navoiy nomidagi axborot-kutubxona markazi" kabi muassasalar yoshlar uchun maxsus dasturlar tashkil etmoqda. Shu bilan birga, "Bir million kitob" loyihasi orqali maktab va universitetlarda kitobxonlikni targ'ib qilish choralari ko'rilmoxda.

Strategiya O'zbekistonning ko'p millatli va ko'p konfessiyali jamiyatida millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikni mustahkamlashni maqsad qilib, yoshlarda bag'rikenglik, mehr-oqibat va insonparvarlik kabi qadriyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi (74-maqsad).

Bag'rikenglikni targ'ib qilish maqsadida yoshlarda turli millat va din vakillariga hurmat, tenglik vaadolat tamoyillarini singdirish uchun maxsus tadbirlar va dasturlar tashkil etilmoqda. Masalan, "Do'stlik festivali" va "Dinlararo muloqot" kabi tadbirlar yoshlar o'rtasida o'zaro hurmat va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi va Millatlararo munosabatlar markazi tomonidan tashkil etilgan loyihalar yoshlarda dinlararo bag'rikenglikni rivojlantirishga yordam bermoqda. Shu bilan birga, maktablarda "Bag'rikenglik darslari" joriy etilmoqda.

Ma'naviy tarbiyani kuchaytirishda Ommaviy axborot vositalari (OAV) ham ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun strategiyada axborot sohasini tartibga solish, fuqarolarning axborotdan foydalanish madaniyatini oshirish va ma'naviy-axloqiy mazmundagi mediamahsulotlarni ko'paytirish rejalashtirilgan. Televideniye, radio va internet platformalarida yoshlarga yo'naltirilgan ma'naviy-axloqiy mazmunli dasturlar ishlab chiqarish strategiyaning muhim yo'nalishlaridan biridir. Masalan, "Ma'naviyat" telekanali va "Yoshlar" radiosи orqali yoshlarda vatanparvarlik va axloqiy qadriyatlar targ'ib qilinmoqda.

Strategiyada yoshlarni axborot manipulyatsiyasidan himoya qilish va ularda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ham ko'zda tutilgan bo'lib, bu maqsadda media savodxonlik darslari va maxsus kurslar joriy etilmoqda. "O'zbekiston 24" telekanalida "Vatanparvar" va "Yoshlar ovozi" kabi ko'rsatuvlар yoshlarda ma'naviy

qadriyatlar va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarda ma'naviy tarbiyaga oid maxsus sahifalar va kanallar faoliyat yuritmoqda.

Global va mintaqaviy hamkorlik masalasiga ham strategiyada alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, unda O'zbekistonning BMT Barqaror taraqqiyot maqsadlari bilan uyg'unligini ta'kidlaydi, bu esa ma'naviy tarbiyani xalqaro standartlar asosida rivojlantirishga yordam beradi. BMTning "Inson huquqlari yo'lida harakatga da'vat" tashabbusi va madaniy-gumanitar hamkorlik orqali yoshlarda global dunyoqarash va ma'naviy yetuklik shakllantiriladi.

Xalqaro hamkorlik borasida UNESCO, ISESCO kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda madaniy merosni asrash va ma'naviy tarbiyani rivojlantirish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, "O'zbekistonning madaniy merosi" loyihasi yoshlarda milliy va global qadriyatlar uyg'unligini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan madaniy va ta'lim sohasidagi hamkorlik yoshlarda mintaqaviy hamjihatlik va ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirishga yordam bermoqda.

Strategiya yoshlarni ijtimoiy faollikka jalb qilish orqali ularda ma'naviy yetuklikni rivojlantirishni maqsad qiladi. "Yoshlar siyosati to'g'risida"gi qonun va "Yoshlar ishlari agentligi" faoliyati bu jarayonda muhim o'rinn tutadi. Yoshlar o'rtasida ko'ngillilik harakatini rivojlantirish, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish va mahalliy jamoalarni rivojlantirish orqali yoshlarda mas'uliyat va mehr-oqibat hissi shakllantirilmoqda. "Yoshlar parlamenti" va "Yoshlar yetakchilari" loyihalari yoshlarni ijtimoiy faoliyatga jalb qilib, ularda rahbarlik va ma'naviy yetuklik ko'nikmalarini rivojlantirmoqda.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda keng qamrovli va tizimli yondashuvni taklif etadi. Strategiya ta'lim, madaniyat, san'at, ommaviy axborot vositalari, kitobxonlik, millatlararo totuvlik va xalqaro hamkorlik kabi sohalarni qamrab olgan holda yoshlarda milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, axloqiy fazilatlar, bag'rikenglik va global dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Strategiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda muhim qadam bo'lib, jamiyatning ma'naviy, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, ushbu jarayonda davlat, fuqarolik jamiyati va xalqning faol ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Ma'naviy yetuk shaxslar tarbiyalanishi orqali O'zbekiston nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ham yetakchi davlatga aylanadi.

Strategiya ma'naviy tarbiyani rivojlantirishda muhim qadam bo'lsa-da, amaliy joriy etishda bir qator muammolar mavjud. Birinchidan, metodik qo'llanmalar va o'quv materiallarining yetishmasligi o'qituvchilarning samarali ishlashiga to'sqinlik qilmoqda. Ikkinchidan, ota-onalar va mahalla bilan hamkorlik tizimi to'liq shakllanmagan, bu tarbiyaning uzluksizligiga ta'sir qiladi. Uchinchidan, strategiyada ko'zda tutilgan sotsiologik so'rovlarning natijalari keng jamoatchilik bilan muhokama qilinmaydi, bu esa ularning shaffofligini pasaytiradi.

Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, Janubiy Koreya va Singapur kabi davlatlar ma'naviy tarbiyada o'qituvchilar malakasini oshirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali yuqori natijalarga erishgan. O'zbekistonda ham axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish (masalan, onlayn tarbiyaviy platformalar) va o'qituvchilar uchun doimiy treninglar tashkil etish muammolarni bartaraf etishga yordam beradi.

Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Strategiya yoshlarda milliy qadriyatlar, mustaqil fikrlash, mas'uliyat va innovatsion tafakkur kabi fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan. Uning beshinchi yo'nalishi — ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va ushbu sohani yangi bosqichga olib chiqish — ijtimoiy taraqqiyotning fundamental omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu yo'nalishning mazmun-mohiyati xalqning milliy o'zligini anglash, tarixiy-madaniy merosni qadrlash, ijtimoiy ong va madaniyatni yuksaltirish orqali barqaror fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan. Strategiyada belgilangan ustuvor vazifalar — ta'lim, madaniyat, axborot siyosati va diniy-ma'rifiy sohalarni uyg'un rivojlantirish orqali shaxsning ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini oshirishni nazarda tutadi. Ayniqsa, ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash, yoshlarning ongiga milliy g'oya va

umuminsoniy qadriyatlarni singdirish zamonaviy davrda dolzARB masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Shu boisdan, beshinchi yo'nalishning izchil amalga oshirilishi jamiyatda barqaror ijtimoiy-madaniy muhitni ta'minlash va ma'naviy yetuk avlodni tarbiyalashning muhim falsafiy-metodologik asosidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Abdulla Avloniy. Odob bo'stoni va axloq gulistoni. - Toshkent: "Fan", 1994, 30-bet.
2. Shavkat Mirziyoyev. (2022). *Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi – xalqimiz orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan tarixiy hujjat*. <https://president.uz/uz/lists/view/4857>
3. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 464 bet.
4. **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni** (2022-yil 28-yanvar, PF–60-son) – "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". *Xalq so'zi*, 2022-yil 29-yanvar. <https://lex.uz/docs/5841063>
5. **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita.** (2022). *Yangi O'zbekiston – ma'naviy taraqqiyot yo'lida*. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti. <https://religions.uz>
6. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlар va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent, "O'qituvchi", 1996. – 227 bet.
7. Saidov, S. (2022). Tarixiy manbalarda keltirilgan Ibn Al Muqaffa borasidagi ma'lumotlar tahlili. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(2), 525-528.
8. Saidov, S. (2022). "Tadbir ul-manzil" risolasi–oilaviy munosabatlar uchun dasturulamal. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5-2), 894-897.
9. Umarov E. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2005. – 128 bet.
10. Erkayev A. Ma'naviyat — millat nishoni. – Toshkent, "Ma'naviyat", 1997. – 166 bet.
11. <https://president.uz/oz/lists/view/4089>